

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№11

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 199 sahifa.
2025-yil, noyabr*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoirazimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

BANK AKTIVLARI VA PASSIVLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	34
Safarov Sanjar Ravshan o'g'li	
O'ZBEKISTONNING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISH STRATEGIYALARI.....	38
Madraximova Irodaxon Sherzodbek qizi	
HUDUDIIY XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA MENEJMENT SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING RAQAMLI TRANSFORMATSIYA MODELII	43
Maxmudova Nozimaxon Baxriddinxonovna	
DAVLATNING BUDJET SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	50
A.A. Ismailov	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGINING MEXANIZMINI SAMARALI TASHKILLASHTIRISHDA MOLIYAVIY MANBALARNI SHAKLLANTIRISHNI YO'NALISHLARI	56
Mansurov Mansur Alisherovich	
ANTIKRIZISLI BOSHQARUV TIZIMLARIDA RANGLI SIGNAL MEXANIZMLARINING FUNKSIYALARI.....	61
Aliqulov Aziz Haydarjonovich	
XODIMLARNI MOTIVATSIYALASHNING XALQARO MODELLARINI O'ZBEKISTON KORXONALARIDA QO'LLASH IMKONIYATLARI.....	66
Yormamatov Qodirjon Juraqulovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT OMILLARI VA ULARNING QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARINING SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	71
Yaxshiyev Shahzod Sherali o'g'li	
OLIY TA'LIM MUASSASALARI VA MEHNAT BOZORI INTEGRATSIYASI BO'YICHA XORIJ TAJIRIBALARI	78
Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich	
YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHDA RIVOJLANGAN VA RIVOJLANAYOTGAN DAVLATLAR TAJIRIBASI	84
Aripov Abdulaziz Sakijonovich	
YASHIL ENERGETIKA RIVOJLANISHINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK BAHOLASH.....	89
Bobokulova Muhabbat Mahammadiyeva	
ELEKTRON TO'LOVLAR VA POS TIZIMLARI — KICHIK BIZNESDA SAMARASI VA XAVFLARI	93
To'liqinov Dilshodxo'ja Olim o'g'li	
MINTAQADA RAQAMLI IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI	98
Yusubov In'omjon Ikram o'g'li	
SOLIQ SIYOSATINI RAQAMLI BOSHQARISH ORQALI BUDJET DAROMADLARINI BARQARORLASHTIRISH STRATEGIYASI.....	103
Xodjimatom Xamidullo Mamirjonovich	
OZIQ-OVQAT TOVARLARI B2B BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH	108
Hayitboyeva Ullijon Bobonazar qizi	
FARMASEVTIKA SANOATIDA INVESTITSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASH	113
Yaqubov Timurbek G'aniybekovich	
SHAXSNI OVOZI ASOSIDA IDENTIFIKATSIYALASH VA AUTENTIFIKATSIYALASH ALGORITMLARI	123
Ozoda Sabirova Shermamatovna	
YASHIL IQTISODIYOT — BARQAROR RIVOJLANISH GENERATORI	129
Berdibekova Dilfuza Xoldorbekovna	
CHET EL MEHMONXONA TARMOQLARINING BRENDING STRATEGIYALARINI O'RGANISH	133
Ergashev Oybek Mamarsul o'g'li	



MILLIY IQTISODIYOTDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SOHASINING MOLIYAVIY SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY JIHATLARINI TAKOMILLASHTIRISH	144
Arzikulov Otabek Ali o'g'li	
TRANSPORT TIZIMI SOHASI KORXONALARINING INNOVATSION SALOHİYATINI BAHOLASH YO'NALISHLARI	152
Ismailov Akmal Maxsudovich, Abilqosimova Shaxlo Sodiq qizi	
MEHMONXONALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA XODIMLARNING O'RNI VA AHAMIYATI	158
Abduxamidov Sarvar Adxamovich, Normurodov Tal'at Normurod o'g'li	
KORXONALARDA HR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	163
Aminova Shaxnoza Aziz qizi	
JAHON IQTISODIYOTIDA OZIQ-OVQAT XAFSIZLIK RO'LI	168
Abdusamatov Barkamol Rustamjon o'g'li	
ТУРИСТИЧЕСКИЕ РЕСУРСЫ КАРАКАЛПАКСТАНА И СУЩЕСТВУЮЩАЯ ИНФРАСТРУКТУРА	174
Хошимова Камилла Навфал қизи	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEXANIZMLARI: REKREATION TURIZM SOHASIDA QO'LLASH TAJRIBASI VA ISTIQBOLLARI	184
Najmitdinov G'ayratbek Sharifovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA VIRTUAL TA'LIM PLATFORMALARI: TEXNIK VA PEDAGOGIK TALABLAR, TIZIMLI TAHLIL VA IQTISODIY JIHATLAR	189
Turayeva Adiba Ikramovna	
ICHKI AUDIT TIZIMI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	193
Nuridinova Barchinoy Xusniddin qizi	



ICHKI AUDIT TIZIMI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Nuridinova Barchinoy Xusniddin qizi

Xalqaro bank ishi fakulteti

Davlat moliyaviy nazorati va auditi

kechki mutaxassisligi tinglovchisi

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

E-mail: barchinoynuriddinova2@gmail.com

Annotatsiya. O'zbekistonda ichki audit tizimi iqtisodiy resurslarning samarali va maqsadli ishlatilishini ta'minlash, davlat mablag'larining noto'g'ri sarflanishi va korrupsiya xavfini kamaytirish, shuningdek, moliyaviy barqarorlikni saqlashda muhim rol o'ynaydi. Bu tizim bir nechta boshqaruv organlari va protseduralarni o'z ichiga oladi. Ushbu maqolada O'zbekiston ichki audit tizimi va uni takomillashtirish masalalari ko'rib chiqiladi. Buning uchun hozirgi ichki audit tizimini to'laqonli o'rganish va tahlil qilish, xorijiy tajribalarni ham o'rganish hamda ular bilan solishtirish zarur bo'ladi. Chunki hozirgi vaqtda jahon iqtisodiyoti jadal sur'atlarda rivojlanmoqda. Bu esa mustaqil davlat sifatida bizning ham shu darajaga chiqishimiz uchun xorijiy tajribalarga ko'proq e'tibor qaratishimiz kerakligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: ichki audit, nazorat, tizim, moliyaviy shaffoflik, resurs, samaradorlik, budget, davlat moliyaviy nazorati, hamkorlik, raqamlashtirish, xavflarni kamaytirish, tizim, Hisob palatasi, Moliya vazirligi.

Abstract. The internal audit system in Uzbekistan plays an important role in ensuring the efficient and targeted use of economic resources, reducing the risk of misuse of public funds and corruption, and maintaining financial stability. This system includes several management bodies and procedures. This article examines Uzbekistan's internal audit system and issues of its improvement. To achieve this, it is necessary to comprehensively study and analyze the current internal audit system, explore foreign experiences, and compare them with domestic practices. As the world economy is currently developing rapidly, the author believes that in order to reach this level as an independent state, greater emphasis should be placed on studying foreign experiences.

Key words: internal audit, control, system, financial transparency, resource, efficiency, budget, state financial control, cooperation, digitalization, risk reduction, system, Accounts Chamber, Ministry of Finance.

Аннотация. Система внутреннего аудита в Узбекистане играет важную роль в обеспечении эффективного и целевого использования экономических ресурсов, снижении риска нецелевого использования государственных средств и коррупции, а также в поддержании финансовой стабильности. Эта система включает в себя ряд органов управления и процедур. В данной статье рассматривается система внутреннего аудита Узбекистана и вопросы её совершенствования. Для этого необходимо всесторонне изучить и проанализировать действующую систему внутреннего аудита, изучить зарубежный опыт и сравнить его с отечественным. Поскольку мировая экономика в настоящее время развивается быстрыми темпами, автор считает, что для достижения аналогичного уровня как независимому государству необходимо уделять больше внимания зарубежному опыту.

Ключевые слова: внутренний аудит, контроль, система, финансовая прозрачность, ресурс, эффективность, бюджет, государственный финансовый контроль, взаимодействие, цифровизация, снижение рисков, система, Счётная палата, Минфин.

KIRISH

Davlatning moliyaviy faoliyati davlat moliyaviy nazorati va ichki audit tizimi bilan uzviy bog'liqdir. Davlat nazorati funksiyasini amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari — budget nazorati va auditi bo'lib, ular mablag'larni shakllantirish, taqsimlash hamda ulardan oqilona foydalanish bosqichlarini kuzatish imkonini beradi. Shu bilan birga, budget qonunchiligi buzilishining oldini olish va uni bartaraf etish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatda moliyaviy nazoratni amalga oshirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga davlat va ijroiya hokimiyati rahbari sifatida keng vakolatlar berilgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining



93-moddasi 8-bandiga muvofiq, Prezident ijroiya hokimiyati tizimini, jumladan, davlat moliyaviy nazorati funksiyalarini bajaruvchi organlar — Hisob palatasi, Moliya vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi va boshqa muassasalarni shakllantiradi. Davlat moliyaviy nazorati tizimida Hisob palatasi alohida o'rin tutadi. U mustaqil va xolis organ bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga hisobot beradi¹.

O'zbekistonning davlat moliyaviy nazorati va ichki audit tizimi mamlakatda budget va moliyaviy resurslarning samarali hamda shaffoflik asosida ishlatilishini ta'minlashga qaratilgan. Mazkur tizim davlat organlari tomonidan moliyaviy faoliyatni nazorat qilish, budget mablag'larining oqilona sarflanishini tahlil etish va davlat moliyasining barqaror boshqaruvini kafolatlashda muhim rol o'ynaydi.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirining 2024-yil 9-apreldagi 23-70-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Ichki audit xizmati boshqarmasi to'g'risidagi vaqtinchalik nizom" asosida, vazirlik markaziy apparatida 7 ta shtat birligidan iborat Ichki audit xizmati boshqarmasi tashkil etilgan bo'lib, barcha xodimlar malaka sertifikatlariga ega. Ichki audit xizmati boshqarmasi o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, Oliy Majlis qarorlari, Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlar, vazirlik qarorlari va buyruqlari asosida, shuningdek, Nizom talablariga muvofiq amalga oshiradi².

So'nggi yillarda mamlakatimizda davlat moliyasini boshqarish tizimining barcha bosqichlarida, xususan, davlat moliyaviy nazorati va ichki auditni rivojlantirish yo'nalishida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlar tizimni zamonaviy xalqaro standartlarga moslashtirish, audit faoliyatining sifatini oshirish hamda davlat moliyasida ochiqlik va javobgarlik tamoyillarini kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, tizimni yanada takomillashtirish zarurati ham mavjud. Chunki tarixan shakllangan ichki audit tizimi ma'lum darajada avvalgi, ya'ni mustaqillikdan oldingi davr tajribalariga tayangan holda rivojlangan. Hozirgi bosqichda esa ichki audit xizmatining vazifalari faqat tekshiruv bilan chegaralanmay, profilaktika, tahlil, konsalting va samaradorlik baholash kabi zamonaviy yondashuvlarni o'z ichiga olishi lozim.

Bugungi kunda davlat idoralarida amalga oshirilayotgan har bir moliyaviy operatsiya nafaqat qonuniylik, balki iqtisodiy samaradorlik, tejamkorlik va natijadorlik nuqtayi nazaridan ham baholanmoqda. Bu esa ichki audit tizimining strategik ahamiyatini yanada oshirib, uni davlat boshqaruvining ajralmas qismi sifatida mustahkamlab bormoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ichki audit xizmati va davlat moliyaviy nazorati o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, davlat organlarida moliyaviy shaffoflikni ta'minlash, qonun ustuvorligini mustahkamlash hamda mavjud resurslardan samarali foydalanishni tashkil etishda muhim o'rin tutadi. Ular davlat organlari faoliyatining ochiqligini oshirish, budget mablag'larining oqilona taqsimlanishini ta'minlash va davlat oldiga qo'yilgan strategik vazifalarni amalga oshirish jarayonida o'zaro hamkorlikda ishlaydi hamda bir-birini to'ldiradi. Shu bois ichki audit va davlat moliyaviy nazorati davlat boshqaruv tizimining ajralmas tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi³.

Soha mutaxassisi K. B. Ahmedjanov o'z ilmiy qarashlarida ta'kidlaganidek, ichki audit yo'nalishi buxgalteriya hisobi texnologiyasi jarayonlarining barcha xodimlar tomonidan to'g'ri va sifatli bajarilishini baholashga qaratilgan. Ichki audit faoliyatining asosiy xususiyatlaridan biri — birlamchi hujjatlar, buxgalteriya hisobi va hisobot registrlarida xatolarni yoki og'ishlarni aniqlash orqali aktivlar hamda hujjatlarning saqlanishini ta'minlashdan iborat⁴.

Boshqacha aytganda, buxgalteriya hisobi tizimining ichki auditi moliyaviy, moddiy, mehnat va axborot resurslarining to'g'ri boshqarilishini ta'minlash, firibgarlik, soxtalashtirish yoki maqsadsiz foydalanish kabi salbiy holatlarning oldini olishga yo'naltirilgan.

Budget xarajatlari ichki auditi metodologiyasiga e'tibor qaratilsa, tashkilotlar moliyaviy qonunbuzarliklar, xatoliklar va samarasizliklarni oldindan aniqlash, ularning oqibatlarini kamaytirish hamda moliyaviy boshqaruvni takomillashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Mazkur jarayon ichki nazorat tizimining yetarliligi va ishonchligini baholash, budget intizomiga rioya etilishini ta'minlash, moliyaviy hisobotlarning aniqligi va fiskal javobgarlik darajasini oshirishni o'z ichiga oladi⁵.

Ichki audit metodologiyasini rivojlantirishda ilg'or ma'lumotlar tahlili, raqamli texnologiyalar va xavflarni baholash usullaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Ushbu yondashuvlar auditorlarga katta hajmdagi

1 "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi", 2023-yil.

2 O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirining 2024-yil 9-apreldagi 23-70-sonli buyrug'i.

3 M. X. Temirov. "Davlat moliyaviy nazorati faoliyatiga ichki audit xizmatlarining ta'siri" nomli maqola, Economics and Education jurnali, 2023-yil.

4 K. B. Ahmedjanov, i.f.n., dotsent, TDIU. "Ichki audit" nomli o'quv qo'llanma, 2019-yil.


5 I. A. Sattarov. "Budget xarajatlari ichki auditi metodikasini takomillashtirish" mavzusidagi maqola, Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali, 2023-yil.



moliyaviy ma'lumotlarni chuqur tahlil qilish, anomalialar va tendensiyalarni aniqlash, shuningdek, budget faoliyati va risklarni boshqarish bo'yicha o'z vaqtida aniq axborot taqdim etish imkonini beradi.

Ichki audit tizimini rivojlantirish borasida xorijiy tajribalarni o'rganish ham muhim o'rin tutadi. Masalan, 2005-yilda Xorvatiya Respublikasida ichki auditning ish sifati va roliga bag'ishlangan empirik tadqiqot o'tkazilgan. Tadqiqot mamlakatdagi jami daromadlar bo'yicha o'lgan 180 ta yirik kompaniya namunasi asosida amalga oshirilgan. So'rovnomaga nafaqat ichki audit bo'limi rahbarlariga, balki kompaniya ichidagi tadbirkorlik faoliyatini nazorat qiluvchi menejerlarga ham yuborilgan. Anketalar respondentlarga pochta va elektron pochta orqali yetkazilgan.

Empirik tadqiqot 2007-yil fevral–mart oylarida o'tkazilgan bo'lib, ushbu davrda 43 ta kompaniya javob bergan. Bu holat tadqiqotning daromadlilik ko'rsatkichi 24 foiz atrofida bo'lganligini va natijalar yetarli ilmiy asosga ega ekanini ko'rsatadi. Ichki auditning funksiyasi va ish sifati o'rganish uchta asosiy maqsadni ko'zlagan: ichki auditning boshqaruvdagi o'rni, audit natijalarining samaradorlikka ta'siri hamda tashkilot ichidagi nazorat tizimi bilan o'zaro aloqalarini aniqlash (1-rasm).



1-rasm. Ish sifati o'lchashda ichki auditning funksiyasi va rolini o'rganish maqsadlari⁶

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning metodologiyasi ichki audit tizimini tahlil qilish, samaradorligini baholash va takomillashtirishga qaratilgan.

Nazariy asoslar: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 9-aprel va 2024-yil 2-dekabrda buyruqlari, shuningdek, ichki audit faoliyatiga oid ilmiy manbalar asos bo'ldi.

Tadqiqot obyekti: davlat organlari va tashkilotlaridagi ichki audit tizimi.

Predmeti: ichki audit xizmatining samaradorligini oshirish yo'llari.

Maqsad: ichki audit tizimini tahlil qilib, xalqaro tajriba asosida uni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Uslublar: tizimli, qiyosiy, empirik va statistik tahlil usullari qo'llanildi. KPI ko'rsatkichlari asosida ichki audit xodimlari faoliyati baholandi.

Amaliy ahamiyati: tadqiqot natijalari ichki audit tizimining samaradorligini oshirish, raqamlashtirishni jadallashtirish va davlat moliyaviy nazoratini takomillashtirishda qo'llanilishi mumkin.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasida davlat organlari va tashkilotlarining ichki audit xizmati xodimlari faoliyatining samaradorligini baholash va rivojlantirish maqsadida Iqtisodiyot va moliya vazirining 2024-yil 2-dekabrda 198-sonli buyrug'i bilan "Davlat organlari va tashkilotlarining ichki audit xizmati xodimlari faoliyatining samaradorligini baholash tartibi to'g'risida"gi Nizom ishlab chiqilgan.

Mazkur Nizom ichki audit xizmati tashkil etilgan vazirliklar va idoralar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar hamda Toshkent shahar hokimliklarining ichki audit xizmatlari rahbarlari va xodimlari faoliyatining samaradorligini eng muhim ko'rsatkichlar asosida baholash, ularni rag'batlantirish va reytingini yuritish tartibini belgilab beradi.

Nizom talablari davlat organlari va tashkilotlaridagi ichki audit xizmatlari rahbarlari va xodimlari faoliyatining natijadorligini ularga yuklatilgan vazifa va funksiyalarni samarali bajarishdagi hissasini aniqlash orqali baholashga tatbiq etiladi. Shu orqali tizimda xolislik, shaffoflik va samaradorlik tamoyillarini mustahkamlashga erishiladi.

Ichki audit xizmatlari rahbarlari va xodimlarining ijro intizomi, mehnat madaniyati hamda tashabbuskorligiga oid ko'rsatkichlar Davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatining samaradorligini baholash uslubiyoti asosida

⁶ Boris Tušek. "Development and Perspectives of Internal Auditing in the Improvement of Business Quality of Enterprises: Empirical Research in Croatia" nomli maqola, Economic Research ilmiy elektron jurnali, 2008-yil.



belgilanadi. Bu yondashuv ichki audit xodimlarining kasbiy o'sishini, malaka darajasini oshirishni va davlat boshqaruvi tizimida ularning mas'uliyatini kuchaytirishni nazarda tutadi.

Nizomda ko'rsatilgan mezonlar asosida hisoblab chiqilgan natijalar yig'indisi bo'yicha xodim faoliyatining samaradorligi yig'ma ko'rsatkichi (KPI — Key Performance Indicator) aniqlanadi. Ushbu ko'rsatkich ichki audit xodimlarining faoliyati natijadorligini raqamli ifodada baholashga imkon yaratadi.

Misol tariqasida, quyida ichki audit xizmati faoliyatini yuritayotgan uch nafar xodimning hisobot davridagi natijalari tahlil qilinadi (1-jadval).

1-jadval. Ichki audit xizmati xodimlarining faoliyati samaradorligi yig'ma ko'rsatkichini aniqlash

T/r	Samaradorlik ko'rsatkichlari	1-xodim	2-xodim	3-xodim
1.	Budjet to'g'risidagi qonunchilik buzilishining oldini olish bo'yicha erishilgan natijalar	900 mln so'm (o'tgan yilda 1,2 mlrd so'm)	1,5 mlrd so'm (o'tgan yilda 1,2 mlrd so'm)	1,7 mlrd so'm (o'tgan yilda 1,2 mlrd so'm)
2.	Masofaviy nazoratni amalga oshirish natijalari	1,3 mlrd so'm (o'tgan yilda 1 mlrd so'm)	900 mln so'm (o'tgan yilda 1 mlrd so'm)	1,6 mlrd so'm (o'tgan yilda 1 mlrd so'm)
3.	Ichki auditning yillik rejasiga muvofiq o'tkazilgan audit tadbirlari soni	4 (umumiy 5)	5 (umumiy 5)	4 (umumiy 6)
4.	Ichki audit obyektlari tomonidan bajarilgan taklif va tavsiyalar soni	18 (umumiy 20)	15 (umumiy 21)	12 (umumiy 16)

Bunda 1-xodim faoliyatining samaradorlik ko'rsatkichlari quyidagicha hisoblanadi:

- Budjet qonunchiligi buzilishining oldini olish bo'yicha natijalar:

$$(0,9/1,2) \times 0,3 (\text{muhimlikvazni}) \times 100 (0,9 / 1,2) \times 0,3 (\text{muhimlik vazni}) \times 100\% = 22,5\%$$

- Masofaviy nazoratni amalga oshirishdagi natijalar:

$$(1,3/1) = 1(1,3 / 1) = 1(1,3/1) = 1 \text{ (nisbat birdan katta bo'lgani sababli "1" qiymati olinadi)}$$

$$1 \times 0,3 (\text{muhimlikvazni}) \times 100 (1 / 1) \times 0,3 (\text{muhimlik vazni}) \times 100\% = 30\%$$

- Ichki auditning yillik rejasiga muvofiq amalga oshirilgan tadbirlar:

$$(4/5) \times 0,2 (\text{muhimlikvazni}) \times 100 (4 / 5) \times 0,2 (\text{muhimlik vazni}) \times 100\% = 16\%$$

- Ichki audit obyektlari tomonidan bajarilgan taklif va tavsiyalar ulushi:

$$(18/20) \times 0,2 (\text{muhimlikvazni}) \times 100 (18 / 20) \times 0,2 (\text{muhimlik vazni}) \times 100\% = 18\%$$

Shunday qilib, 1-xodim faoliyatining umumiy samaradorlik yig'ma ko'rsatkichi (KPI) quyidagicha aniqlanadi:

$$22,5\% + 30\% + 16\% + 18\% = 86,5\%$$

Faoliyat samaradorligini baholash mezonlari

Samaradorlik ko'rsatkichlarini hisoblash natijalariga ko'ra, xodim faoliyatining yig'ma ko'rsatkichi quyidagi tartibda baholanadi:

Baholash darajasi	Foiz oralig'i
Qoniqarsiz	56 foizgacha
Qoniqarli	56 foizdan (shu jumladan) 71 foizgacha
Yaxshi	71 foizdan (shu jumladan) 86 foizgacha
A'lo	86 foizdan yuqori

Mazkur jadvalga muvofiq, 1-xodimning yig'ma ko'rsatkichi 86,5% bo'lgani sababli, uning faoliyati "a'lo" darajada samarali deb baholanadi⁷. Ushbu natijalar xodimning reytingini shakllantirishda, rag'batlantirish tizimini takomillashtirishda va ichki audit xizmatlari samaradorligini umumlashtirilgan tarzda baholashda qo'llaniladi.

Ichki audit metodologiyasini takomillashtirish yo'nalishlari

Ichki audit metodologiyasini takomillashtirish — bu budjetni boshqarish jarayonida audit faoliyatining samaradorligi, dolzarbligi va sifatini oshirishga qaratilgan tizimli yondashuvdir. Mazkur jarayon mavjud audit amaliyotlarini, me'yoriy asoslarni va rivojlanayotgan tendensiyalarni o'rganish, ilg'or tajribalarni joriy etish hamda tartibga solish talablariga mos yondashuvlarni ishlab chiqishni o'z ichiga oladi.

⁷ Iqtisodiyot va moliya vazirining 2024-yil 2-dekabrda 198-son buyrug'i "Davlat organlari va tashkilotlarining ichki audit xizmati xodimlari faoliyatining samaradorligini baholash tartibi to'g'risidagi Nizom."



Ushbu evolyutsion jarayon ichki audit funksiyalariga potensial xavflarni oldindan aniqlash, ularni proaktiv tarzda boshqarish, yaxshilanish yo'nalishlarini belgilash va budget nazorati hamda moliyaviy boshqaruvni takomillashtirish uchun ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

2022-yil 1-sentabrdan boshlab vazirlik va idoralarning ichki audit xizmati xodimlari tomonidan o'tkaziladigan tadbirlar Ichki auditning milliy standartlari hamda Ichki audit tadbirlarini o'tkazish bo'yicha qo'llanma asosida amalga oshirilmoqda. Bu yondashuv audit faoliyatini yagona metodologik asosda tashkil etish, jarayonlarning sifatini oshirish va natijadorlikni kafolatlashga xizmat qilmoqda.

Zamonaviy audit usullari va ularning amaliy ahamiyati

Audit usullarini samarali qo'llash nafaqat auditorlarning ish sifatini oshiradi, balki tashkilotning umumiy boshqaruv tizimiga ham mohiyatli foyda keltiradi. Shu sababli, ko'plab ichki audit menejerlari bugungi kunda audit qamrovini kengaytirish, qo'lda bajariladigan operatsiyalarni kamaytirish va raqamli texnologiyalar asosida yangi yechimlarni joriy etish ustida faol ishlamoqda.

Zamonaviy tendensiyalar shuni ko'rsatadiki, auditorlar tobora ko'proq axborot texnologiyalari, ma'lumotlar tahlili va avtomatlashtirilgan nazorat vositalaridan foydalanmoqda. Bu esa dastlabki sarmoya talab etgan bo'lsa-da, uzoq muddatda sezilarli darajada ijobiy iqtisodiy va tashkiliy natijalar beradi.

Bugungi kunda audit texnikasi va kompyuterlashtirilgan audit protseduralari doirasi nihoyatda keng. Shunga muvofiq, aniq audit usulini yoki usullar kombinatsiyasini tanlash — bu auditorlik topshirig'ining maqsadi, ko'lam, murakkabligi hamda ish jarayonidagi real vaziyat bilan belgilanadi.

Kundalik ish faoliyatida qo'llaniladigan eng samarali va mashhur audit usullari orasida auditorlar quyidagi yondashuvlarni ajratib ko'rsatadilar.

Avvalo, bu "ma'lumotlarni tahlil qilish usullari" bo'lib, ular auditorlik faoliyatining ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish, doimiy audit, xavfni baholash hamda firibgarlik holatlarini aniqlash kabi jihatlarini o'z ichiga oladi. So'rov natijalari shuni ko'rsatadiki, ichki auditorlarning 57 foizi aynan ushbu uslubdan faol foydalanadi. Bu yondashuv Yevropaning yetakchi kompaniyalari ichki audit bo'limlari tomonidan turli tadbirlarda — jumladan, risklarni baholash, auditni rejalashtirish, ijro etish va hisobot tayyorlash bosqichlarida muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, bunday tahliliy texnikalar — prognozli modellash, regressiya tahlili va ma'lumotlarni qazib olish (data mining) usullari ichki audit funksiyalari tomonidan firibgarlikni aniqlash, nazorat tizimlarini sinovdan o'tkazish hamda xavflarning sabablarini tahlil qilish uchun keng qo'llanilmoqda.

Xalqaro amaliyotda samarali audit usullarining ahamiyati

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, samarali audit usullaridan foydalanish ko'pincha auditorlik topshiriqlari davomida ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish va sharhlash sifatini sezilarli darajada oshiradi. Natijada audit jarayoni nafaqat ishonchli, balki yanada tezkor va natijador bo'ladi.

Bundan tashqari, resurslarning cheklanganligi va iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash zarurati sababli, ayrim hollarda keng qamrovli testlarni o'tkazish maqsadga muvofiq emas. Shu bois, ichki auditorlar mavjud resurslardan oqilona foydalanish orqali audit jarayonining aniqlik, ishonchlilik va tejamkorlik darajasini saqlab qolishga intilmoqdalar.

Ichki auditorlar risklarni boshqarish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini yanada kuchaytirishlari lozim, chunki bu soha an'anaviy audit amaliyotida nisbatan kam yoritilgan yo'nalishlardan biridir. Shuningdek, auditorlar xavfga asoslangan yondashuvni kengaytirgan holda, strategik va moslashuvchan audit rejalarini tuzishlari, kadrlar salohiyatini oshirish, uzluksiz o'qitish va innovatsion audit texnologiyalaridan samarali foydalanishni yanada kuchaytirishlari kerak.

Texnologiyalarning ichki auditdagi roli

So'rov natijalariga ko'ra, auditorlik xodimlari zamonaviy texnologiyalarni qo'llashning muhimligini e'tirof etgan bo'lsalar-da, hali barcha tashkilotlarda bu imkoniyat to'liq darajada amalga oshirilmagan. Tarixan, ichki audit ko'pincha MS Office Suite kabi oddiy unumdorlik dasturlaridan foydalangan bo'lsa, bugungi kunda u avtomatlashtirilgan ish hujjatlarini boshqarish, nazoratni testdan o'tkazish, doimiy xavf monitoringi, riskga asoslangan audit rejalashtirish, bilimlar bazasini boshqarish, ma'lumotlarni tahlil qilish, grafik hisobot tayyorlash, muammolarni kuzatish va audit hujjatlarini raqamli boshqarish kabi ilg'or texnologiyalarni qo'llash orqali yanada katta natijalarga erishmoqda.

Texnologiyalarning joriy etilishi tashkilotning strategik maqsadlarini qo'llab-quvvatlaydi, boshqaruv, risklarni boshqarish va muvofiqlik faoliyatlarini integratsiyalashtirgan, yagona tizim asosida uyg'unlashtiradi. Bu esa xavfning markazlashgan va shaffof ko'rinishini yaratadi hamda tavakkalchilikka asoslangan moslashuvchan audit rejalarini ishlab chiqish imkonini beradi.

Natijada ichki audit funksiyasi tashkilotning umumiy maqsadlariga mos, tezkor, innovatsion va natijador tizim sifatida shakllanib bormoqda⁸.

8 <https://www.metricstream.com/insights/evolving-role-of-internal-audit.htm>



XULOSA VA TAKLIFLAR

Ichki audit yangi tushuncha emas. Vaqt o'tishi bilan u oddiy moliyaviy hisobotlarni tekshirishdan tortib, firibgarlik holatlarini aniqlash va korrupsiyaviy xavflarni kamaytirishgacha bo'lgan jarayonlarni o'z ichiga olgan kompleks boshqaruv tizimiga aylandi. Bugungi kunda ichki audit nafaqat moliyaviy faoliyatni tekshirish, balki tashkilot boshqaruvi, risklarni boshqarish, muvofiqlikni ta'minlash, resurslardan oqilona foydalanish hamda ma'lumotlarni tahlil qilish orqali qaror qabul qilishni takomillashtirishga xizmat qilmoqda.

Davlat tashkilotlarida kuzatilayotgan tizimli islohotlar, risklarni boshqarishning yangi istiqbollari hamda yuqori boshqaruv va nazorat organlari talablarining ortib borayotgani sharoitida, ichki audit tizimi faqat operatsion samaradorlikni oshirish bilan cheklanmasdan, qiymatni yaratish, iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va boshqaruv sifatini oshirishga qaratilishi lozim⁹.

O'zbekistonning jahon iqtisodiyotiga jadal integratsiyalashib borayotgan hozirgi davrida, xalqaro moliyaviy hisobot va audit standartlariga o'tish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ichki audit tizimi bu jarayonda muhim o'rin tutib, moliyaviy resurslar va asosiy kapitaldan samarali foydalanish, barqaror o'sish istiqbollarini belgilash va boshqaruv qarorlarini qabul qilish samaradorligini ta'minlash imkonini beradi.

Bu esa, o'z navbatida, iqtisodiy faoliyatni takomillashtirish orqali mamlakatning makroiqtisodiy ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir ko'rsatish uchun mustahkam asos yaratadi. Shuningdek, ichki audit tizimining rivojlanishi davlat moliyaviy nazoratining shaffofligini oshiradi, samaradorlik va javobgarlikni kuchaytiradi.

Ichki audit funksiyasini takomillashtirish dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Chunki har yili bu faoliyatning maqsadlari, funksional imkoniyatlari va natijaviylik mezonlariga qo'yiladigan talablar yanada ortib bormoqda. Tizimning zamon talablari asosida rivojlanib borishi esa uning barqarorlik, ishonchlilik va moslashuvchanlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Shu bois, ichki auditni rivojlantirish masalalari doimiy e'tibor markazida bo'lishi zarur. Unga qo'yiladigan talablar va natijaviylik ko'rsatkichlari yildan-yilga aniqlashib, sifat jihatidan yuksalib bormoqda. Bu esa audit faoliyatining uzluksiz takomillashuvini va xalqaro tajribaga yaqinlashuvini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: 2023-yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirining 2024-yil 9-apreldagi 23-70-son buyrug'i.
3. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirining 2024-yil 2-dekabrda 198-son buyrug'i "Davlat organlari va tashkilotlarining ichki audit xizmati xodimlari faoliyatining samaradorligini baholash tartibi to'g'risidagi Nizom."
4. K. B. Ahmedjanov. Ichki audit: O'quv qo'llanma. – Toshkent: TDIU, 2019-yil.
5. M. X. Temirov. "Davlat moliyaviy nazorati faoliyatiga ichki audit xizmatlarining ta'siri" nomli maqola. – Economics and Education jurnali, 2023-yil.
6. I. A. Sattarov. "Budjet xarajatlari ichki audit metodikasini takomillashtirish" mavzusidagi maqola. – Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali, 2023-yil.
7. E. A. Egarova. "Budushchee vnutrennego audita sozdaiotsya segodnya" nomli maqola. – Ekonomicheskaya teoriya, analiz, praktika jurnali, 2012-yil.
8. Boris Tušek. "Development and Perspectives of Internal Auditing in the Improvement of Business Quality of Enterprises: Empirical Research in Croatia." – Economic Research ilmiy elektron jurnali, 2008-yil.
9. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar elektron jurnali.
10. MetricStream. "The Evolving Role of Internal Audit."

⁹ <https://www.metricstream.com/insights/evolving-role-of-internal-audit.htm>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
